



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ISSN: 2992-9083

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 3 / ISS:5 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TDIU, Islom Karimov 49, 100066, Toshkent



<https://insurance.tsue.uz>

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta’lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).

№	MUNDARIJA	Page
1.	YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA ATMOSFERAGA CHIQARILADIGAN CO₂ EMISSIYASI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK <i>Xoshimov P.Z, Egamnazarova G.Sh</i>	4
2.	YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDIIY MAISHIY CHIQINDILARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: XORAZM VILOYATI MISOLIDA EMPIRIK TAHLIL <i>Djumabayeva Shaira Xalillayevna, Jumaniyozov Farxodjon Rajapboy o'g'li</i>	8
3	TOSHKENT MINTAQASIGA XOS AGROTURIZM RESURSLARI HAMDA INFRATUZILMA HOLATI VA BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI <i>Shodiyeva Nafosat Hamza qizi</i>	14
4	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR: ASOSIY XUSUSIYATLARI, RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA IMKONIYATLARI <i>Shadmanov Zuhridin Zokirxodjayevich</i>	18
5	TIJORAT BANKLARDA ISHLAB CHIQISHDA FOYIZ XAVFLARINI BOSHQARISHINI MUSTAHKAMLASH <i>Seitnazarov Daniyar Baxadirovich</i>	22
6	УЛУЧШЕНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ ВНЕДРЕНИЯ ВОДОЭКОНОМИЧНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПОГИСТАН <i>Сейтназаров Бахадир Муратбаевич</i>	26
7	KORXONALAR MOLIYAVIY FAOLIYATI OPERATSIYALARINI TASNIFLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN KONSEPTUAL MODEL: MILLIY VA XALQARO YONDASHUVLAR UYG'UNLIGI <i>Umarova Shahnoza</i>	30
8	TRANSPORT INFRATUZILMASINING RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI <i>Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi</i>	31
9	SHAXSIY SUG'URTA TURLARINI RIVOJLANTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBASI <i>Isayeva Xolbib Boboqulovna</i>	34
10	TIBBIY SUG'URTANING KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA TA'SIRI <i>Yusupov Akbar Haydarovich</i>	39
11	MOL-MULK SUG'URTASIDA RISKLARNI BAHOLASH VA ANDERRAYTING METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Tuxtarova Maftuna Yo'ldashboy qizi</i>	44
12	TURAR-JOY KO'CHMAS MULKINI GEDONIK MODELLASHTIRISHDA FUNKSIONAL SHAKL TANLOVI <i>Xushvaqtoy Jasur Shuhrat o'g'li</i>	49
13	HUDUDIIY INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO "YASHIL" STANDARTLAR TIZIMI <i>Salomov Abdusalom Ismatovich</i>	54
14	MILLIY TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHGA QARATILGAN DAVLAT SUBSIDIALASH TIZIMI SAMARADORLIGI <i>Abdurazakov Shavkat Shokirdjanovich</i>	57
15	O'ZBEKISTONDA HUDUDIIY INVESTITSIYA SIYOSATINING IQTISODIY-INSTITUTSIONAL TAHLILI VA NATIJADORLIK MODEL (FARG'ONA VILOYATI MISOLIDA) <i>Xudayberganov Soxibnazar Kimyanazarovich</i>	62
16	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOVARLAR EKSPORTI TARKIBINING IQTISODIY VA TEXNOLOGIK TASNIFLAGICHLAR ASOSIDA STATISTIK TAHLILI <i>Norkulov Shavkat Shakarbayevich</i>	66
17	STRATEGIK MOLIYAVIY HISOB TIZIMINI JORIY ETISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI, KO'RSATKICHLARI VA USULLARI <i>Umarova Shaxlo Abduvaliyevna</i>	70
18	OLIY TA'LIM MUASSASALARI MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI SHAROITIDA FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL YONDASHUVI <i>Adizov Bobir Baxtiyorovich</i>	77



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOVARLAR EKSPORTI TARKIBINING IQTISODIY VA TEXNOLOGIK TASNIFLAGICHLAR ASOSIDA STATISTIK TAHLILI

Norkulov Shavkat Shakarbavevich

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi tadqiqotchisi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti, Toshkent, O'zbekiston shavkatnorkulov@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasi tovarlar eksporti tarkibi ikki xalqaro tan olingan uslub Birlashgan Millatlar Tashkilotining Keng qamrovli iqtisodiy toifalari KQIT (BEC) va Oksford universiteti professori, S.Lall tomonidan ishlab chiqilgan texnologik intensivlik klassifikatsiyasi asosida tahlil qilingan. Tahlil natijalari eksport hajmining o'sishiga qaramay, uning tarkibiy sifatida tub o'zgarish yuz bermaganini ko'rsatadi. KQIT (BEC) tasnifi bo'yicha sanoat xom-ashyosi va yoqilg'i-moylash mahsulotlari birgalikda eksportning yarmidan ko'pini, Lall tasnifi bo'yicha esa birlamchi va resursga asoslangan mahsulotlar eksportning 50 foizdan ortig'ini tashkil etadi. Ikki metodologiyaning o'zaro mustaqil, ammo bir-birini to'ldiruvchi xulosalari mamlakat eksport siyosatida qayta ishlash sanoatini chuqurlashtirish zarurligini asoslaydi. **Kalit so'zlar:** tashqi savdo statistikasi, eksport tarkibi, Keng qamrovli iqtisodiy toifalar (BEC), Lall texnologik klassifikatsiyasi, xom-ashyo eksporti, texnologik intensivlik, iqtisodiy diversifikatsiya.

Abstract: The article analyzes the commodity structure of the Republic of Uzbekistan's goods exports through two internationally recognized methodologies - the United Nations' Broad Economic Categories (BEC) classification and S. Lall's technological intensity classification. The findings show that despite growth in export volume, no fundamental structural transformation has occurred: under the BEC classification, industrial raw materials and fuel products together account for more than half of exports, while under the Lall classification, primary products and resource-based manufactures make up over three-quarters of exports. The two independent et complementary methodologies both support the conclusion that Uzbekistan's export policy requires a deeper push toward processing industries.

Keywords: foreign trade statistics, export structure, Broad Economic Categories (BEC), Lall technological classification, raw material exports, technological intensity, economic diversification.

Абстрактный: В статье товарная структура экспорта Республики Узбекистан анализируется на основе двух международно признанных методологий - классификации широких экономических категорий (БЭК) Статистического отдела ООН и классификации технологической интенсивности С. Лалла. Результаты анализа показывают, что, несмотря на рост объема экспорта, коренных структурных изменений не произошло по классификации БЭК промышленное сырьё и топливно-масляная продукция в совокупности составляют более половины экспорта, а по классификации Лалла первичные и ресурсоёмкие товары превышают три четверти экспорта. Независимые, но взаимодополняющие выводы обеих методологий обосновывают необходимость углубления перерабатывающей промышленности в экспортной политике страны.

Ключевые слова: статистика внешней торговли, структура экспорта, широкие экономические категории (БЭК), технологическая классификация Лалла, сырьевой экспорт, технологическая интенсивность, экономическая диверсификация.

Kirish (Введение/Introduction).

Tashqi savdo hajmining o'sishi o'z-o'zidan mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi ortayotganidan darak bermaydi. Muhimi bu hajm qanday tovarlar hisobiga shakllanayotgani, ya'ni eksportning ichki tarkibi qay tarzda o'zgarayotganidir. Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda tobora ko'proq ta'kidlanayotganidek, "qancha eksport qilish" masalasi "nima eksport qilish" masalasiga qaraganda ancha ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi, chunki aynan eksportning tovar tarkibi mamlakatning uzoq muddatli o'sish salohiyatini, texnologik yetuklik darajasini va jahon iqtisodiy tizimidagi o'rini belgilaydi. Xuddi shunday tuzilmaviy tahlil yondashuvi boshqa mamlakatlar jumladan, Rossiya va Skandinaviya davlatlari tashqi savdosining tovar tarkibini o'rganishda ham qo'llanilgan.

Ushbu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasi eksportini baholashda ikkita bir-birini to'ldiruvchi, biroq turli mezonlarga tayanuvchi xalqaro uslubiyotdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Birinchisi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Statistika bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan Keng qamrovli iqtisodiy toifalar (Broad Economic Categories, BEC) tasnifi bo'lib, tashqi savdo siyosatini samarali baholash va mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasini aniqlash uchun qulay metodologik vositadir. U tovarlarni ularning iqtisodiy maqsadi bo'yicha guruhlaydi. Ushbu tasnif importdagi tovarning xarakteri - kapital tovar, oraliq tovar (xomashyo va yarim tayyor mahsulot) yoki iste'mol tovari ekanligini aniqlash imkonini beradi. BECning metodologik xususiyati

shundaki, u tashqi savdo statistikasini Milliy hisoblar tizimi (MHT) bilan bog'lovchi «ko'priki» vazifasini o'taydi va iqtisodiy strategiyalar tuzish hamda kelajakni bashorat qilishda muhimdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

O'zbekiston tashqi savdosining tovar tarkibini statistik jihatdan o'rganish mamlakat eksportining iqtisodiy tuzilishi, diversifikatsiya darajasi hamda texnologik rivojlanish xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi tomonidan shakllantiriladigan tashqi savdo statistikasi mamlakat eksport-import operatsiyalarining tovarlar, mamlakatlar va tovar guruhlar kesimidagi tarkibini tahlil qilish uchun asosiy axborot manbalaridan biri hisoblanadi [1].

Tashqi savdoning tovar tarkibini statistik tahlil qilish masalalari xorijiy tadqiqotlarda ham keng o'rganilgan. E.R. Rizvanova tomonidan Rossiya va Skandinaviya mamlakatlari tashqi savdosining tovar tarkibi statistik jihatdan tahlil qilinib, eksport va import tarkibidagi o'zgarishlarni baholashda tarkibiy ko'rsatkichlar, dinamik qatorlar hamda tovar guruhlar bo'yicha taqqoslash usullaridan foydalanilgan [2]. Mazkur yondashuv O'zbekiston eksportining tovar tarkibidagi o'zgarishlarni vaqt bo'yicha aniqlash va alohida tovar guruhlarining umumiy eksportdagi ulushini baholash uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

N.E. Grigoruk xalqaro savdoning dinamikasi va tarkibini statistik o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotida tashqi savdo ko'rsatkichlarini faqat mutlaq qiymatda emas, balki ularning tarkibiy o'zgarishlari va dinamik tendensiyalari orqali baholash zarurligini asoslagan [3]. Ushbu yondashuv

1-jadval.

O'zbekiston Respublikasi eksportining KQIT (BEC) toifalari bo'yicha tarkibiy dinamikasi (2016–2022 yy., mlrd AQSh dollari)¹

KQIT toifasi	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	Ulushi %, (2022)	Izoh
Oziq-ovqat va ichimliklar	0,66	0,84	1,06	1,47	1,37	1,37	1,69	8,7	Meva-sabzavot, qayta ishlangan
Sanoat uchun xomashyo	6,12	6,94	6,59	9,07	9,90	10,17	10,01	51,9	Oltin, mis, paxta, kimyoviy o'g'itlar
Yoqilg'i va moylash materiallari	1,71	1,60	2,66	2,52	0,65	0,91	1,20	6,2	Tabiiy gaz, neft mahsulotlari
Investitsiya tovarlari (uskunalar)	0,10	0,11	0,07	0,13	0,09	0,10	0,20	1,1	Transformatorlar, nasoslar
Transport uskunalar va qismlari	0,09	0,19	0,08	0,20	0,23	0,44	0,56	2,9	Avtomobillar, ehtiyot qismlar
Iste'mol tovarlari	0,30	0,39	0,43	0,58	0,84	1,08	1,59	8,2	Tayyor kiyim-kechak, maishiy texnika
Boshqa toifaga kirmaydigan tovarlar	0,000	0,000	0,03	0,06	0,009	0,01	0,02	0,1	Jismoniy shaxslar tovarlari
Xizmatlar eksporti	3,12	2,474	3,07	3,43	2,01	2,58	4,02	20,8	Transport, turizm va IT xizmatlari
JAMI	12,1	12,5	14,0	17,5	15,1	16,7	19,3	100,0%	

O'zbekiston eksportining yillar kesimidagi o'zgarishlarini, eksport tarkibida alohida tovar guruhlar ulushining oshishi yoki kamayishini aniqlash imkonini beradi.

Eksport tovarlarini iqtisodiy mazmuniga ko'ra guruhlashda BMTning Broad Economic Categories (BEC), Revision 5 tasnifi muhim metodologik vosita hisoblanadi. BEC tasnifi xalqaro savdo tovarlari iqtisodiy faoliyatda foydalanish maqsadiga ko'ra guruhlanib, ularni oraliq iste'mol, yakuniy iste'mol va kapital tovarlari sifatida ajratish imkonini beradi [4]. Mazkur tasnifdan foydalanish O'zbekiston eksportining iqtisodiy tarkibini chuqurroq tahlil qilish, xususan, mamlakat eksportida xomashyo, oraliq mahsulotlar, kapital tovarlari va iste'mol tovarlari ulushini aniqlash imkonini yaratadi.


Eksportning texnologik tarkibini baholash masalasida S. Lallning tadqiqoti alohida ilmiy ahamiyatga ega. Muallif rivojlanayotgan mamlakatlarning qayta ishlangan mahsulotlar eksportini texnologik darajasiga ko'ra guruhlash orqali eksport tarkibining texnologik xususiyatlarini baholash metodologiyasini ishlab chiqqan [5]. Mazkur yondashuv O'zbekiston eksportini past, o'rta va yuqori texnologiyali mahsulotlar guruhlariga ajratish hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarning eksportdagi ulushini aniqlash uchun muhim nazariy asos bo'la oladi.

Tovarlarni xalqaro savdoda yagona kodlash va tasniflash masalasida Jahon bojxona tashkilotining **Harmonized System (HS)** tizimi asosiy xalqaro standartlardan biri hisoblanadi. HS tizimi tovarlarni yagona xalqaro nomenklatura asosida tasniflash imkonini berib, turli mamlakatlarning tashqi savdo statistikalarini o'zaro taqqoslash uchun zarur metodologik asosni yaratadi [6]. O'zbekiston eksportini HS kodlari asosida guruhlash esa tovar tarkibini batafsil tahlil qilish, iqtisodiy va texnologik guruhlar bo'yicha qayta tasniflash hamda xalqaro statistik ma'lumotlar bilan taqqoslash imkonini beradi.

Yuqoridagi ilmiy va metodologik manbalarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston eksportini statistik tahlil qilishda faqat eksport hajmi va uning yillik o'zgarishini aniqlash yetarli emas. Eksport tarkibini tovar guruhlar, iqtisodiy foydalanish yo'nalishi va texnologik darajasi bo'yicha kompleks baholash zarur. Bunda Milliy statistika qo'mitasining tashqi savdo ma'lumotlari [1], tovar tarkibining statistik tahlili bo'yicha yondashuvlar [2; 3], BEC iqtisodiy tasnifi [4], Lallning texnologik tasniflash metodologiyasi [5] hamda HS xalqaro tovar nomenklaturasi [6] o'zaro uyg'unlashtirilishi mumkin.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning asosiy ilmiy yo'nalishi O'zbekiston Respublikasi tovarlar eksportini iqtisodiy va texnologik tasniflagichlar asosida guruhlash, har bir guruhning jami eksportdagi ulushini aniqlash, tarkibiy siljishlarni statistik baholash va eksportning texnologik transformatsiyasi tendensiyalarini aniqlashdan iborat.



1-rasm. Eksportning KQIT (BEC) toifalari bo'yicha tarkibiy tuzilishi dinamikasi (2016–2022 yy., mlrd AQSh dollari). Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.¹

¹Muallif ishlanmasi

2016-2022 yillar davomida O'zbekiston Respublikasining KQIT (BEC) tasnifi bo'yicha eksporti bir qator muhim tendensiyalarni namoyon etadi. Jami eksport 12,1 mlrd dollardan 19,3 mlrd dollarga, ya'ni 1,6 barobar o'sdi. Biroq ushbu o'sishning asosiy manbai BEC-2 (Sanoat xomashyosi) toifasi bo'lib, u 6,12 mlrd dollardan 10,01 mlrd dollarga ko'tarildi va 2022-yilda jami eksportning 51,9 foizini tashkil etdi.

Bundan-da aniqroq aytadigan bo'lsak, tahlil shuni ko'rsatadiki, agar BEC-2 (sanoat xom-ashyosi) va BEC-3 (yoqilg'i-moylash mahsulotlari) toifalari birgalikda, ya'ni birlamchi resurs sektorlari sifatida hisoblansa (chunki har ikkisi ham, "qayta ishlangan" deb nomlangan qismi ham, tayyor sanoat mahsulotiga emas, balki metall quymasi, neft mahsuloti kabi bosqichlararo birlamchi mahsulotlarga tegishli), bu ko'rsatkich 2022-yilda jami eksportning 58,1 foizini (11,21 mlrd doll.), 2020-yilda esa 69,9 foizigacha tashkil etadi. Bu ko'rsatkich alohida ogohlantiruvchi signal bo'lib, mamlakat eksportining yarmidan ko'pi bitta kengaytirilgan sektorga bog'liq bo'lib qolmoqda, bu esa iqtisodiy barqarorlikka jiddiy xavf tug'diradi.


Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Mazkur tahlilda ayniqsa diqqatga sazovorki, BEC-2 tarkibidagi "qayta ishlangan" qism (9,73 mlrd doll., ya'ni toifaning 97,2 foizi) katta ulushda oltin va rangli metallar (mis, rux, qo'rg'oshin) quyimalari hamda kimyoviy o'g'itlardan iborat. Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, faqat oltin eksporti 2022-yilda 4,11 mlrd dollarni tashkil etib, bu BEC-2 toifasi "qayta ishlangan" qismining deyarli yarmiga to'g'ri keladi. Oltinni jadvaldagi rasmiy xom-ashyo ko'rsatkichiga qo'shib hisoblaganda, 2018-2020 yillarda mamlakat eksportining 47-51 foizi bevosita xom yoki minimal qayta ishlangan resurslarga bog'liq bo'lgani ko'rinadi.

Xizmatlar eksporti (BEC-8) 3,12 mlrd dollardan 4,02 mlrd dollarga o'sib, jami eksportning 20,8 foizini tashkil etgan bo'lsa-da, bu ko'rsatkich tovar eksporti tasnifiga metodologik jihatdan kirmaydi va alohida baholanishi lozim. Istiqbolli tendensiya sifatida BEC-6 (Iste'mol tovarlari) 0,30 mlrd dollardan 1,59 mlrd dollarga, ya'ni 5,3 barobar o'sgani ko'rsatiladi. Bu tayyor mahsulotlar ulushining kengayib borayotganini tasdiqlaydi. BEC-4 (Asosiy vositalar) va BEC-5 (Transport vositalari) birgalikda 2022-yilda atigi 0,77 mlrd dollar, ya'ni 4,0 foizni tashkil etib, mahalliy sanoatning yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish salohiyati hali etarli shakllanmaganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi eksporti miqdoriy jihatdan o'ssa-da, tuzilmaviy diversifikatsiya hali maqsadli darajaga yetmagan, birlamchi resurs sektorlariga (kengaytirilgan hisobda 50,0 foizdan yuqori) bog'liqlikni kamaytirish va yuqori qo'shilgan qiymatli, qayta ishlangan mahsulotlar ulushini oshirish milliy eksport siyosatining asosiy vazifasi bo'lib qolmoqda. KQIT tasnifi bo'yicha aniqlangan 58,1 foizlik xomashyo bog'liqligi savol tug'diradi. Bu ko'rsatkich faqat tovarning kelib chiqishi xom yoki qayta ishlangan ekanligini ko'rsatadi. Biroq eksportning texnologik murakkablik darajasi, ya'ni mamlakat ishlab chiqarish salohiyati qay darajada rivojlanganini butunlay boshqa mezon orqali baholashni talab qiladi. Shu ehtiyojdan kelib chiqib, quyida Lall klassifikatsiyasiga ko'rib chiqishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

S. Lall tomonidan 2000-yilda taklif etilgan texnologik intensivlik klassifikatsiyasi eksport tovarlarini besh guruhga ajratadi. Resursga asoslangan mahsulotlar (RB), birlamchi mahsulotlar (PP), past texnologiyali (LT), o'rta texnologiyali (MT) va yuqori texnologiyali (HT) mahsulotlar. Lall klassifikatsiyasining ilmiy ahamiyati shundaki, u eksportning texnologik intensivligini mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy o'sish salohiyatini belgilovchi eng ishonchli ko'rsatkichlardan biri sifatida qaraydi.



2-rasm. Eksportning Lall tasnifi bo'yicha texnologik tarkibi dinamikasi (2016–2024 yy., mlrd AQSh dollari). Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.²

Lall metodologiyasi asosida o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi 2016-2024 yillar davomida eksport hajmini 8,74 milliard dollardan 19,57 milliard dollarga, deyarli 2,24 barobarga oshirishga erishgan. Biroq bu o'sishning texnologik mazmuni raqamlarning o'zidan ancha boshqacha manzarani ochib beradi. O'sish yuqori texnologiyali mahsulotlar hisobiga emas, balki asosan birlamchi (PP) va resursga asoslangan (RB) tovarlar hisobiga yuz bergan resursga asoslangan (RB) tovarlar eksportining 51,2 foizi hamon aynan shu toifada to'plangan, bu esa eksport tarkibidagi sifat o'zgarishlari nihoyatda sekin kechayotganini ko'rsatadi. Yuqori texnologiyali mahsulotlar (HT) ulushi esa 2024-yilda atigi 0,165 milliard dollarni, ya'ni umumiy eksportning 0,8 foizini tashkil etgan.

Mazkur holatning yana bir muhim jihati eksportning bir necha aniq tovar turiga o'ta yuqori darajada bog'liqligidir. Tahlil shuni ko'rsatadiki, faqat ikkita mahsulot oltin (HS 71 kodi, 7,75 mlrd dollar, ulushi 39,6%) va paxta (HS 52 kodi, 1,39 mlrd dollar, ulushi 7,1%) birgalikda tovarlar eksportining 46,7 foizini tashkil etadi. Ularga mineral yoqilg'i (HS 27), mis (HS 74), meva-sabzavot (HS 07+08), rux (HS 79) va ipak (HS 50) mahsulotlarini qo'shsak, atigi ettita tovar turi jami eksportning 67,9 foizini egallaydi.

Yuqoridagi 81,3 foiz (PP+RB) va 67,9 foiz (yetti mahsulot) ko'rsatkichlari eksportning xom-ashyoga bog'liqligini umumlashtirilgan tarzda aks ettiradi, biroq ularning tarkibida energetika mahsulotlari va oziq-ovqat mahsulotlari kabi biroz farqli pozitsiyalar ham mavjud. Shu sababli, energetika, oziq-ovqat va tasniflanmagan qoldiq pozitsiyalarni chetlab o'tib, faqat mineral va qishloq xo'jaligi xom-ashyosining o'zi (oltin, mis, o'g'itlar, paxta, ipak, rux) alohida hisoblansa, bu "haqqoniy xom-ashyo" ko'rsatkichi 2016-2024 yillar davomida jami eksportning 47-63 foiz oralig'ida, 2024-yilda esa 55,5 foiz darajasida barqaror yuqori bo'lib qolayotgani ma'lum bo'ladi. Demak, hisoblash uslubidan qat'i nazar keng (81,3%) yoki tor (55,5%) yondashuvda ham yakuniy xulosa o'zgar olmaydi va O'zbekiston Respublikasi eksporti tuzilmaviy jihatdan hamon xom-ashyoga chuqur bog'liq bo'lib qolmoqda.

²Muallif ishlanmasi

2-jadval.

O'zbekiston Respublikasi eksportining Lall texnologik tasnifi bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024-y.)³

Ko'rsatkichlar	Hajm / ulush
Jami eksport (2016 - 2024)	8,74 - 19,57 mlrd dollar (2 barobardan ortiq)
Resursga asoslangan (RB) tovarlar toifalari ulushi	51,2%
Yuqori texnologiyali (HT) mahsulotlar	0,165 mlrd dollar (0,8%)
Oltin (HS 71)	7,75 mlrd dollar (39,6%)
"Haqqoniy xomashyo" ko'rsatkichi (2016–2024)	47–63% (2024-yil: 55,5%)

Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

O'zbekiston Respublikasi eksportini ikkita mustaqil, ammo bir-birini to'ldiruvchi xalqaro metodologiya KQIT va Lall klassifikatsiyalari asosida tahlil qilish bir xil yakuniy xulosaga olib keladi. Eksport hajmi izchil o'sib borayotgan bo'lsa-da, uning ichki sifat tarkibida tub o'zgarish hali yuz bermagan. KQIT tasnifi bo'yicha birlamchi resurs sektorlariga

(sanoat xom-ashyosi va yoqilg'i-moylash mahsulotlari) bog'liqlik kengaytirilgan hisobda 58,1 foizni tashkil etsa, Lall tasnifi bo'yicha resursga asoslangan mahsulotlar ulushi 51,2 foizga yetadi. Ikki metodologiyaning turlicha mezonlar orqali bir xil xulosaga kelishi, ya'ni eksportning xom-ashyo tabiatiga chuqur bog'liqligi bu xulosaning tasodifiy emas, balki eksport tarkibining tizimli xususiyati ekanligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, iste'mol tovarlari ulushining 5,3 barobar o'sishi kabi ijobiy sur'atlar ham mavjud bo'lib, bu qayta ishlash sanoati salohiyatining asta-sekin shakllanib borayotganini ko'rsatadi. Biroq kapital va yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushining bir foizdan biroz yuqori darajada qolayotgani mamlakatning global qiymat zanjirlarida hamon quyi texnologik pog'onada joylashganligini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi yo'nalishlarda islohotlarni jadallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi:

- eksport siyosatida xom-ashyoni qayta ishlash sanoatini rag'batlantirish choralari kengaytirish, xususan oltin, mis va paxta xomashyosini yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotga aylantiruvchi ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish;

- texnologik modernizatsiyani, ayniqsa o'rta va yuqori texnologiyali tarmoqlarda, davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orqali tezlashtirish;

- eksport tarkibini muntazam ravishda KQIT va Lall kabi xalqaro tasniflagichlar asosida monitoring qilib borish, bu esa siyosat samaradorligini xolis baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Tashqi savdo statistikasi ma'lumotlari. URL: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/foreign-trade>
2. Э.Р. Ризванова. Статистический анализ товарной структуры внешней торговли России и стран Скандинавии. Оренбург ОГУ, 2012. - 198 с.2.
3. Н.Е.Григорук Статистические аспекты анализа динамики и структуры международной торговли: дис. ... канд. экон. наук – Москва: МГИМО, 2017. - 54 с.
4. United Nations Statistics Division. Broad Economic Categories (BEC), Revision 5. - New York: United Nations, 2020. - 57 p.
4. Lall, S. The Technological Structure and Performance of Developing Country Manufactured Exports, 1985–98 // Oxford Development Studies. - 2000. - Vol. 28, №3. - P. 337–369.
5. World Customs Organization (WCO). The Harmonized System: A Universal Language for International Trade. - Brussels: WCO, 2022.
6. ISO 37125:2024. Sustainable cities and communities – Environmental, social and governance (ESG) indicators for cities. Geneva: ISO, 2024.
7. Browder G., Ozment S., Rehberger Bescos I., Gartner T., Lange G.-M. Integrating Green and Gray: Creating Next Generation Infrastructure. Washington, DC: World Bank and World Resources Institute, 2019.
8. ISO 37123:2019. Sustainable cities and communities – Indicators for resilient cities. Geneva: ISO, 2019.
9. ISO 37151:2024. Smart community infrastructures – Principles and requirements for performance metrics. Geneva: ISO, 2024.

³ Muallif ishlanmasi